Ширзаев.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД-60530900
2023-yil “29” 06

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2023-yil “__” _____

O‘ZBEK TILI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530900 – Fizika

Samarqand – 2023

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
URT1204	2023-2024	2	3
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		2

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	O‘zbek tili	30	60	90

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarning o‘zbek tilidan olgan bilimlarini yanada boyitish, o‘z fikr-mulohazalarini o‘gzaki va yozma ravishda erkin bayon eta olishlariga erishish. Fan va ta’lim integratsiyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish.

Fanning vazifasi – talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o‘zbek tilidagi matn ustida ishlash bilim, og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash, ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish malakalarini shakllantirish.

II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg‘ulotlari)

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “O‘zbek tili” fanining maqsadi va vazifasi. “Davlat tili haqida”gi qonun va uning ijrosi.
2. “O‘zbekiston – yagona Vatan” matni. Tovushlar talaffuzi: Unli va undosh tovushlar.
3. “Davlat ramzlari” (madhiya, bayroq, gerb) matni. O‘zbek tilining imlo qoidalari.
4. “Salomlashish – insoniy fazilat” matni. O‘zbek tilida sinonim va antonim, omonim va paronim so’zlar.
5. “Ulug‘ ajdodlarimiz“ mavzusida (Alp Er Tunga, Spitamen, Shiroq, To‘maris, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va boshqalar haqida) matn tuzish. Tilning leksik qatlamlari: tarixiy so’zlar va arxaik so’zlar.
6. “Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik” matni. Frazeologik birliklar va ularning uslubiy xususiyatlari.
7. “Toshkent – mamlakatimiz poytaxti” matni. Erkin va turg‘un birikmalar.
8. “Samarqand – sharq gavhari” matni. Atamalar va ularning vujudga kelishi.
9. “Kitob mutolaasi” matni. O‘zbek tilida so‘z tuzilishi va yasalishi.
10. “Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimi” matni. Fe’l so‘z turkumi.
11. “Hadisshunos vatandoshlarimiz” matni. Ot so‘z turkumi O‘zbek tilida so‘zlarning turlanishi.
12. “Kelajak Bilimli yoshlar qo’lida”. Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari.
13. “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi” matni. Yordamchi so‘z turkumlari va ularning xususiyatlari.
14. “Adabiyot – tarbiya vositasi” (Alisher Navoiy ijodi asosida) matni. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.
15. Nazorat ishi. Diktant.

III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha mustaqil ishlarning tematik-rejasi 60 soat bo‘lib, mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

№	Mavzu nomi	Ish turi	Axborot manbai	Hisobot shakli	Ajratilgan soat
1.	O‘zbek xalq maqollaridan namunalar yozish va yod olish	Adabiyotlardan konspekt qilish,	[A 1; Q 13]	Konspekt daftari,	2

	(50 ta)	yod olish		og'zaki	
2.	O'zbek xalq topishmoqlaridan namunalar yozish va yod olish (50 ta)	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1; Q 20]	Konspekt daftari, og'zaki	2
3.	Tez aytishlardan namunalar yozish va yodlash (20 ta).	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 7]	Konspekt daftari, og'zaki	2
4	O'zbek xalq ertaklaridan namunalar o'qish va mazmunini konspektlashtirish (10 ta).	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 12]	Konspekt daftari, og'zaki	2
5.	Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan o'z hamda ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 5]	Konspekt daftari, og'zaki	2
6.	Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan iboralarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 5]	Konspekt daftari, og'zaki	2
7.	Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan bir va ko'p ma'noli so'zlarni	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 5]	Konspekt daftari, og'zaki	2
8.	Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan sifat va ravish so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, individual topshiriqlarni bajarish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
9.	O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan olmosh va son so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, individual topshiriqlarni bajarish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
10.	Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidagi rivoyatlarni o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan sifat va ravish so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 19]	Konspekt daftari, og'zaki	2
11.	Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan yordamchi so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1,Q16 17]	Konspekt daftari, og'zaki	2
12.	Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan atoqli va turdosh otlarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 5]	Konspekt daftari, og'zaki	2
13.	Abdulla Oripovning "Sohibqiron" daramasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan iboralarni aniqlash	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 14]	Konspekt daftari, og'zaki	2

14.	G'ofur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan sifat so'z turkumi va sifat darajalarini aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 7]	Konspekt daftari, og'zaki	2
15.	Erkin Vohidovning "Qiziquvchan Matmusa" hajviy she'rlar to'plamini o'qish va yodlash hamda matndan aniq, mavhum otlarni aniqlash	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 18]	Konspekt daftari, og'zaki	2
16.	Oybekning "Gulnor opa" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan undov, modal va taqlid so'zlarni aniqlash	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
17.	Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan son olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
18.	Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan ravish so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
19.	Tohir Malikning "Alvido bolalik" qissasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan darak, buyruq va so'roq gaplarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 9]	Konspekt daftari, og'zaki	2
20.	Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan yordamchi so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
21.	Asqad Muxtorning "To'qqizinchi palata" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan ibora va maqollarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
22.	Shavkat Rahmonning "Turkiylar" she'rini yodlash va she'r matnidan sinonim va paronim so'zlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
23.	Usmon Azimning "Grafika" she'rini yodlash va she'r matnidan sifat va ravishlarni aniqlash	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
24.	Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rini yodlash va she'r matnidan sinonim so'zlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2

25.	Oybekning "Namatak" she'rini yodlash va she'r matnidan sodda va qo'shma gaplarni aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish, yod olish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
26.	Erkin Vohidovning "O'zbegim" qasidasini yodlash va she'r matnidan sinonim va omonimlarni so'zlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zaki	2
27.	Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rini yodlash va she'r matnidan atoqli va turdosh otlarni aniqlash.	Badiiy asarni o'qib, konspekt qilish	[A 1, Q 10]	Konspekt daftari, og'zaki	2
28.	"Buyuk ipak yo'li va uning insoniyat tarixidagi o'rni" mavzusida insho yozish.	Insho yozish	[A 1, Q 23]	Konspekt daftari, og'zak	
29.	"Qomusiy olim al-Xorazmiy" mavzusida insho yozish.	Insho yozish	[A 1, Q 8]	Konspekt daftari, og'zak	
30.	"Ahmad al-Farg'oniy va uning merosi" mavzusida insho yozish.	Insho yozish	[A 1, Q 8]	Konspekt daftari, og'zak	

3.	**IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • *Tovushlar talaffuzida nutq o'rinlari holat va harakati, o'qitilayotgan matnda uchraydigan tanish va notanish leksik birliklarning ma'no noziklikarini o'rganish, matnni turlarga ajrata bilish va ularning har biriga xos xususiyatlar haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;* • *Turli funksional uslublar (badiiy, ilmiy, publitsistik)ga mansub matnlarni til, adabiyot (o'rni bilan she'rshunoslik), lingvokulturologik, lingvopragmatika, lingvopoetika nuqtai nazaridan tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;* • *Tahlil qilinayotgan matn mazmuni sharhlash ko'nikmalari, ularning badiiy quvvati va boyligini stilistik va boshqa vositalarni muallif g'oya va pafosini ifodalay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.*
4.	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • aqliy hujum, FSMU-texnologiyasi; • muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord va loyihalash usullari, amaliy ishlar. • guruhli fikrlash, kichik guruhlar musobaqalari, Venn diagrammasi, klaster usuli, baliq skeleti, "Nima uchun?" chizmalari
5.	**VI. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Husanov S., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent, TMI, 2017. – 336 b. 2. Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent, ToshDSHI, 2016. – 532 b. 3. Mirzayev I., Boltayev M. O'zbek tili. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 365 b. 4. Mirzayev I., Qodirova B. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent, VNESHINVESTPROM, 2019. – 336 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. A.Qahhor. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
6. Abdulla Qodiriy. Jinlar bazmi. – Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti. 10 b.
7. Ermatov N. 99 topishmoq va tez aytishlar. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2013
8. G'afur G'ulom. Mening o'g'rigina bolam. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 128 b.
9. Homidjon Homidiy. Ko'hna sharq darg'alari. – Toshkent: Sharq, 2004. 324 b.
10. Malik T. Alvido bolalik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. 504 b.
11. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2004. 9-b.
12. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik. Qayta ishlangan 2-nashri). – Toshkent, O'qituvchi, 2012. – 288 b.
13. O'zbek xalq ertaklari, III jild, Afzalov M., Rasulov X., Husainova Z., 2007; O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 152 b.
14. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005. — 512 b.
15. Oripov A. Jannatga yo'l. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.107-b.
16. Qahhorova H., Muhammedova S. O'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2004. – 192 b.
17. Said Ahmad. Qorako'z majnun. –Toshkent: O'zbekiston, 2013. 88-bet.
18. Temur A. Temur tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. -184 b.
19. Turdiyeva K., Ahmedova D. O'zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhlari talabalari uchun darslik). – Toshkent: Musiqa, 2007. – 206 b.
20. Vohidov E. Qiziquvchan Matmusa. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. 96 b.
21. Воҳидов Эркин Руҳлар исёни. Достон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 114 б.
22. Қизиқарли топишмоқлар / Тўпловчи: Наргиза Тошқулова. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2014. – 96 бет.
23. Internet ma'lumotlari (saytlar:)

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.ziyonet.uz
3. www.ziyouz.com
4. saviya.uz
5. arboblar.uz
6. kh-davron.uz

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	B.I.Qodirova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail:	Kodirova.b86@gmail.com
Tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Taqrizchilar:	A.Pardayev – SamDU, filologiya fanlari doktori, professor X.Xayrullayev – SamDCHTI, Til nazariyasi va adabiyotshunoslik kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri **prof.Mirzayev I.K.**

Filologiya fakulteti dekani **prof.Pardayev A.B.**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektori **prof.Soliyev A.S.**

Mutaxassislik fanlari bo'yicha fan dastur sillabuslarni xorij tajribasini o'rgangan holda **transformatsiya qilish bo'yicha ishchi guruh:**

Rais: **Mo'minov M. E.**

A'zo **Mavlonov A. H.**

"Kelishilgan"
SamDU o'quv uslubiy boshqarma
boshlig'i:
Sh.A.Muranov
_____
"__" _____2023-yil

SamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori I.K.Mirzayev va dotsenti B.I.Qodirovalar tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili" fan dasturiga

TAQRIZ

Til – millatning asosiy belgilaridan biri. Dunyoda xalqlar ko'p, lekin har bir xalq, avvalo, o'z tili, milliy urf-odati va an'analari, o'ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o'zligini namoyon qilishda o'zbek tilning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Professor I.K.Mirzayev va dotsent B.I.Qodirovalar tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili" fan dasturi ayni shu tilning o'rni va ahamiyatini ifodalash maqsadida tuzilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarining rus va tojik guruhlari talabalariga mo'ljallangan. Fan dasturidan o'rin olgan mavzular talabalarni ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularda milliy o'zlikni anglatishga xizmat qilish va ona Vatanga mehr-muhabbatni oshirish ruhida tarbiyalaydi.

"O'zbek tili" fan dasturida turli mavzularga oid matnlar, grammatikaga doir mavzular va mustaqil ta'lim mavzulari o'rin olgan. Mazkur mavzular orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakillantirish, shuningdek, o'zbek tilining leksik va grammatik qurilishiga doir nazariy ma'lumotlarni o'rgatish, talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'zbek tilidagi matn ustida ishlash bilim, og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash, ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish malakalarini shakllantirish maqsad qilingan. "O'zbek tili" fani bo'yicha mustaqil ta'limning tematik-rejasi ham puxta ishlangan. Unda A.Qahhor, O'.Hoshimov, S.Ahmad hikoyalaridan, E.Vohidov "Ruhlar isyoni" dostonidagi rivoyatlardan hamda shoirlarimiz she'rlaridan namunalar o'qish va o'rganish, mazkur asarlar matni bo'yicha grammatik topshiriqlarni bajarish o'rin olgan. Yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olib maskur fan dasturini universitet miqyosida joriy qilish mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi: **A.B.Pardayev**

Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti dekani, f.f.d, professor

SamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori I.K.Mirzayev va dotsenti B.I.Qodirovalar tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili" fan dasturiga

TAQRIZ

Oliy ta'lim muassasalarida ona tilini o'qitish, uning me'yorlarini ishlab chiqish, tegishli darsliklar yaratish doim asosiy masala bo'lib kelgan. Samarqand davlat universiteti professori I.Mirzayev va dotsenti B.Qodirova tomonidan tayyorlangan oliy ta'lim muassasalarining rus va tojik guruhlari uchun "O'zbek tili" fan dasturi ham aynan shu maqsadda yaratilgan.

Mazkur dasturda fanga jami 120 soat ajratilgan bo'lib, 48 soat amaliy mashg'ulot, 72 soat mustaqil ta'lim mavzulari o'rin olgan. Amaliy mashg'ulotlarning har bir mavzusi (masalan, ."Milliy qadriyatlar – millat iftixori" matni. Orfografiya va orfoepiya haqida ma'lumot) ma'lum bir matn va grammatikaga oid mavzulardan tuzilgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga ham alohida e'tibor berilgan holda (masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'qish, mazmunini konspektlashtirish va matndan iboralarni aniqlash) o'zbek tilidagi badiiy asarlarni o'qish o'quvchilarda so'z boyligini oshirishga, milliy ma'naviyatni rivojlantirishga, hamda ko'z xotirasini yaxshilab, imlo savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan mavzular ishlab chiqilgan. Bu mavzular talabalarning til bilimlarini rivojlantirish bilan birga o'zbek tili borasidagi savodxonlik darajasini oshirish uchun yordam beradi. Shuningdek, mazkur fan dasturidan o'rin olgan barcha mavzular talabalarning o'zbek tilidan bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, o'zbek tilini chuqur o'rganish, ularda davlat tilida ish yuritishga bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi.

Yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olib maskur fan dasturini universitet miqyosida joriy qilish mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi **Y.Xayrullayev – SamDCHTI,**
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori

SHARQ TILLARI FAKULTETI

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

A) **5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- **Fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;**
- Fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa,
- Fan bo'yicha mavzu materiallarning nazariy va amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- Fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- Berilgan savollarga aniq lo'nda javob bera olsa;
- Konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- Mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- Fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- Fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- Tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

B) **4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- Fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- Fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- Fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- Fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- Fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- Fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

V) **3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- Fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;
- Fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- Bayon qilish ravon bo'lmasa;
- Fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- Fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

G) **Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**

- Fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- Fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- Fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- Fan bo'yicha matnda jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- Fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- Fanni bilmasa.

Yakuniy nazorat *yozma, og'zaki ish* shaklida:

№	Savollar qaysi mashg'ulot turiga tegishli	Ball
1	Ma'ruza mashg'ulotidan	0-5 ball
2	Ma'ruza mashg'ulotidan	0-5 ball
3	Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotidan	0-5 ball
4	Mustaqil ta'lim	0-5 ball
5	Mustaqil ta'lim	0-5 ball

Yakuniy nazorat *test* shaklida

№	Savollar qaysi mash'ulot turiga tegishli	Savollar soni
1	Ma'ruza mashg'ulotidan	20 ta
2	Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotidan	10 ta
3	Mustaqil ta'lim- nazariy	10 ta
4	Mustaqil ta'lim-amaliy, seminar, laboratoriya	10 ta
	Jami:	50 ta

- YaN – yozma ish, yozma-og'zaki yoki test shaklida o'tkaziladigan.
- Yakuniy nazoratlar bakalavriaturaning kunduzgi va kechki ta'lim shakli talabalariga Talabalar nazoratlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limida, magistratura talabalariga Magistratura bo'limida o'tkaziladi. Nazorat jarayoni va ishlarni tekshirishda mashg'ulot olib borgan professor-o'qituvchilar ishtirok etmaydi.
- Yozma ish shaklidagi nazoratlar maxsus jihozlangan xonalarda, videokuzatuv ostida fan dastur (sillabus)ining ma'ruza, amaliyot (laboratoriya, seminar) va mustaqil ish mavzulari doirasidagi 5 ta savol har bir savolga maksimal 5 balldan baholanadi, jami ball savollar soniga bo'linadi va butun sonlarda yaxlitlangan holda yozma ish baholanadi.
- Yozma ishlar tekshirish uchun skanerlangan holda respublikamizning turdosh oliy ta'lim muassasalariga yuboriladi va ushbu OTMlarning professor-o'qituvchilari tomonidan baholanadi.
- Test shaklidagi nazoratlar videokuzatuv ostida kompyuter sinflarida fan dasturining ma'ruza, amaliyot (laboratoriya, seminar)va mustaqil ish mavzulari doirasidagi 50 ta savol *(to'g'ri javoblar soni: 30-36 bo'lganda – "3-qoniqarli", 37-43 bo'lganda – "4-yaxshi", 44-50 bo'lganda – "5-a'lo" baholanadi)*dan jami ball savollar soniga bo'linadi va butun sonlarda yaxlitlangan holda baholanadi.

$$\text{baho} = \left(\frac{B_1 + B_2 + \cdots + B_n}{n} - natija\ butun\ sonlarda\ yaxlitlanadi\right)$$

B – yozma ish yoki tesdagi savollar javobiga qo'yilgan ballar. Bunda, yozma ishda har bir savol javoblar "*B*=0, 1, 2, 3, 4, 5" ballar bilan baholanadi.

Misol: umumiy ball savollar soniga bo'linganda bo'limma 2,5 ga teng bo'lsa, u holda yozma ish yoki test natijasi"3" (qoniqarli) baho bilan baholanadi.

Nazoratlar natijasida to'plangan ball quyidagi tizim asosida bahoga konvertatsiya qilinadi:

Baho	$\frac{B_1 + B_2 + \cdots + B_n}{n} = ball$
5 (a'lo)	4,5–5
4 (yaxshi)	3,5-4,49
3 (qoniqarli)	2,5–3,49
2 (qoniqarsiz)	0-2,49